

**BALLADASIDA RUHIYAT TASVIRI VA MAHORAT**

*Gulmurodova Sevinch Fazliddin qizi*

*O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti  
fakulteti 2-kurs talabasi.*

*Usarova Laylo Ibragimovna.*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti.*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamid Olimjonning ijodi, asarlarning qurilishi, ballada janrida onaning so'zlarida ruhiyatni ochib berish mahoratini tashvirlash haqida so'z yuritilgan*

*Kalit so'zlar: Hamid Olimjon, ballada, kompozitsiya, badiiy qurilish, yechim, dialog, ona va bola, urush, voqealar rivoji*

Hamid Olimjon ham o'z asarlarida boshqa yozuvchilarimiz singari savodsizlikni tugatish, xalq dunyoqarashini o'zgartirish uchun bir necha asarlar orqali amalga oshirishga uringan. Hamid Olimjon kitobxonlar dilidagi ma'naviy ehtiyojlarini anglab va his qilgan holda o'z asarlarida maksimal darajada xalq hayoti, hamda unda bo'layotgan voqealar bilan bog'lashga intilgan. Shoirning intilish va izlanishlari natijasida bir qator ballada va dostonlari "xalq hayotini ko'rsatgan asarlar" darajasiga ko'tarildi. Xususan "Jangchi Tursun" balladasi ham shu asarlaridan biridir. "Jangchi Tursun" balladasi ona va bola munosabatining badiiy qurilishidan tashkil topgan. Asarning g'oyaviy ta'siri onaning so'zlariga qaratilgan. Asar ona bolasining qochish niyatini eshitgan xabari bilan boshlanib, o'g'liga berilgan ketma-ket savollari va qat'iy buyruqlariga asoslanadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, ona tomonidan aytilayotgan so'zlar xalqning so'zlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir insonga jon shirin tuyilganidek Tursunga ham Jangchi maydonidan qochish rejasi xayollarida aylanaveradi. "O'lib ketsam bo'lmaydi, Qochganim yaxshi tezroq"[1: 4] ushbu satrlarni Said Ahmadning "Ufq" romanida keltirilgan Tursunboyni ko'z oldimizga gavdalantiradi. Tursunboy urushdan qochadi, ota-onasini el-yurt orasida topgan hurmatini yo'qqa

chiqaradi. Bu ikki asarni bir biriga bog'liqligi - ikkala obraz ham yakka o'g'il farzand, undan kutilayotgan orzu umidlar, onangning mehri, insonni jumbushga keltirgan so'zlari yozilgan. Urush maydonidan qochish bu eng katta gunoh. Shuning uchun Tursunning onasi unga xatda yozilgan so'zlar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Yot ellarda sarson bo'lib qabr uchun joyni qarzga sotib olish bu judalar ta'sirli Jummalarni. Ona qayerdayu bola qayerda ular orasidagi masofa hech qanday ahamiyat kasb etmagan onasi bolasini sha'nini g'ururini to'kmasligini bittagina xatda tasvirlaydi.

"Yigit bo'lib bu dunyoda

Shu uchun yurganmiding?

O'z yurtidan chekingan

Botirni ko'rganmiding?[1:7]

Mard o'g'lonlar yurtning faxri. Ular elni odatdan saqlashlari lozim. Tursunga onasi ushbu xatdagi so'zlar orqali eslatadi. Shoir asarni ballada janrida badiiy salmog'ini yanada kuchliroq tasvirlashga erishadi. Onaning so'zlari shunaqangi mahorat bilan tasvirlaydiki urush maydonidan qochmoqchi bo'lgan Tusunning oyoqlari hech narsani sezmagan holda jangga kirishi tasvirlangan.

"U yerga quladi

O'qday uchib bo'larkan

Tog'day og'ir qulaydi

Qush singari og'ir tan"[1:12]

"Ufq ham qizarib

Quyula boshlandi shom."[1:13]

Bu jumlar qonli urush fojiasini oddiy jangchi Tursun qiyofasida ochib berishga urinadi. Ballada oxirida shomning kirishi bu kunning yakunlanishi ya'ni urushning tugashiga qiyoslangan. Hamid Olimjon asar voqealarini harakatga keltiruvchi obrazlarni asosiy qismi yozuvchi fantaziyasining mahsuloti.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamid Olimjon "Jangchi Tursun" Toshkent "O'qituvchi" 1984
2. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Karimov N., Hamid Olimjon. Shoir hayoti va ijodidan lavhalar. T., 1979.